



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-iyun

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlari hajmi 66562,9 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 132,2 % ni tashkil etdi.
- Transport xizmatlari ulushi ko'rsatilgan umumiy xizmatlar hajmida 30,3 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 2030,7 ming.so'mni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 66562,9 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,6 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta hajm, transport xizmatlari (20132,9 mlrd.so'm) tashkil etadi.


Ko'rsatilgan xizmatlar hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm




Shu bilan birga, savdo xizmatlari hajmi (18321,5 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (9298,1 mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (4535,1 mlrd. so'm) ham oshdi.

Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasida 203,7 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning jami korxonalar va tashkilotlar sonidagi ulushi 66,5% ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida korxonalar va tashkilotlar jami sonida xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




2018 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, %



2018 yil yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Toshkent shahrida (113,6 %), Navoiy (112,9 %), Jizzax (110,6 %), Surxondaryo (107,6 %) viloyatlarida qayd etildi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Toshkent (104,2 %), Qashqadaryo (104,5 %), Buxoro (105,1 %), Xorazm (105,6 %), Farg'ona (105,7 %) viloyatlarida kuzatildi.

**2018 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**


	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
O'zbekiston Respublikasi	66562,9	107,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1978,4	106,4
viloyatlar:		
Andijon	3647,9	106,0
Buxoro	2885,4	105,1
Jizzax	1411,2	110,6
Qashqadaryo	3165,4	104,5
Navoiy	1751,9	112,9
Namangan	2790,9	106,2
Samarqand	4473,4	106,3
Surxondaryo	2504,6	107,6
Sirdaryo	866,6	106,6
Toshkent	4980,3	104,2
Farg'ona	4135,1	105,7
Xorazm	1949,8	105,6
Toshkent shahri	21316,6	113,6

Hududlar o'rtasida eng katta xizmatlar hajmi Toshkent shahrida (21316,6 mlrd.so'm), Toshkent viloyatiga (4980,3 mlrd.so'm) to'g'ri keladi.

Eng past hajmlar Sirdaryo (866,6 mlrd.so'm), Jizzax (1411,2 mlrd.so'm) viloyatlarida kuzatildi.

Hududlar o'rtasida Toshkent shahri etakchi o'rinni egallaydi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi 32,0 % ni tashkil qiladi. Shu bilan birga, xizmatlar umumiy hajmida hududlar bo'yicha eng yuqori ulushlarni Toshkent (7,5 %), Samarqand (6,7 %), Farg'ona (6,2 %) va Andijon (5,5 %) viloyatlari tashkil etadi.


2018 yil yanvar-iyun oylarida respublika bo'yicha jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi
(jami hajmga nisbatan), %



Hududlar o'rtasida eng past ulushlar Sirdaryo (1,3 %), Jizzax (2,1 %), Navoiy (2,6 %), Xorazm (2,9 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasiga (3,0 %) to'g'ri keladi .

2018 yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2030,7 ming.so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 105,8 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar




Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida – 8611,4 ming.so'm qayd etildi. 2017 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish 11,7 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Surxondaryo viloyatida – 991,5 ming.so'm kuzatildi, o'sish sur'ati 105,3 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (34,7 %), moliyaviy xizmatlar (32,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (18,2 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (15,2 %) bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %




Taqqoslash uchun, 2017 yil yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati - 106,6 %, moliyaviy xizmatlar - 131,6 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari - 116,2 %, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar - 114,7 % ni tashkil etgan.

Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligi va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Moliyaviy xizmatlar o'sish sur'atining oshishi Surxondaryo (143,8 %), Jizzax (138,9 %), Navoiy (137,0 %) Toshkent (135,8 %) viloyatlari va Toshkent shahrida (136,0 %) kuzatildi.

Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati, %




Moliyaviy xizmatlar bo'yicha boshqa hududlarga nisbatan eng past o'sish sur'atlari Buxoro (112,5 %), Qashqadaryo (122,1 %), Xorazm (122,7 %), Andijon (122,8 %), Farg'ona (123,0 %) viloyatlarida qayd etildi.

Bugun respublikamizda transport mustaqilligi ta'minlangan va respublikaning barcha hududlarini bir-biri bilan bog'laydigan milliy tizim yaratilgan. Shu bilan birga, transport tizimi tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va boshqa mamlakatlar bilan integratsiyalashuv omili sifatida xizmat qilmoqda.

Transport xizmatlari umumiy hajmida eng katta ulushni avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar (48,3 %) tashkil etadi.

Quvurlar orqali tashish xizmatlari jami transport xizmatlarining 19,0 % ni tashkil etadi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %




Temir yo'l transportida ko'rsatilgan xizmatlar transport xizmatlari umumiy hajmi 14,9 % ni tashkil etadi.

Yuklar va yo'lovchilarni havo transportida tashish bo'yicha xizmatlar ulushi transport xizmatlari umumiy hajmida 10,6 % ga yetdi.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibida eng katta ulush Toshkent shahri (16,7 %), Toshkent (13,7 %) va Samarqand (11,8 %) viloyatlariga to'g'ri keladi.

Eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo (1,6 %), Jizzax (2,7 %), Navoiy (2,8 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (3,3 %) qayd etildi.

**2018 yil yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida avtomobil
transporti xizmatlarining ulush**
(jami hajmga nisbatan), %



Davlat statistika qo'mitasi

Xizmatlar sohasi statistikasi
boshqarmasi

Mas'ul:

Q.Berdiqulov